ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

JAMOAT TRANSPORT TARMOQLARINI ASOSLI SHAKILLANTIRISH METODI ANDIJON SHAHRI MISOLIDA

Katta o‘qituvchi, To‘raboyev Holmurod Rustamjon o‘g‘li
(Andijon davlat texnika instituti) (+998944170091, holmurodturaboyev@gmail.com,.),
Alijonov Shahzodbek Zafarbek o‘g‘li (talaba)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Andijon shahar hududida jamoat transporti ustuvorligini ta’minlash, shahar infratuzilmasidan kelib chiqib jamoat transporti yo‘nalishlarini belgilash, shahardagi ekologik xavfsizlikni, YTH sonini kamaytirishni hamda ustuvor jamoat transporti yo‘nalishlarini shakllantirish bayon etilgan. Shu bilan birgalikda ustuvor jamoat transporti yo‘nalishlar tarmog‘i shakllantirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Avtobus, temir yo‘l, trolleybus, tramvay, xususiy sektor, infratuzilma, transport oqimi, yo‘nalishlar tarmog‘i , transportlar tarmog‘i, optimizatsiya, ustuvorlik, ekologik standart.*

KIRISH

Transport shahar hayotining asosidir. Bu shaharning shakli va moliyaviy rivojlanishini hal qiladigan o‘zgaruvchilardan biridir. Transport tizimining harakatchanligi va qulayligi shakllanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy va pul harakatlari sohasiga, shahar jamoalarining shakli va kattaligiga, turmush tarziga va tempiga ta’sir ko‘rsatadi. Shaharlashish darajasi va aholi sonining o‘sishi, shaharlarning rivojlanishi, qulaylik va faollikni taqsimlash kabi bir qancha muammolar tufayli motorli transportga bo‘lgan talabning ortishi kuzatildi. Mavjud jamoat transporti inshootlari rivojlanayotgan mamlakatlarda bir nechta sabablarga ko‘ra talabni qondira olmaydi, masalan, jamoat transportida yo‘lovchilarning sayohat sifati pastligi, yomon boshqariladigan yo‘llar va boshqa infratuzilma ob’ektlarini o‘z ichiga oladi. Hozirgi jamiyatda shaharsozlik tarmog‘idagi uzluksiz o‘sish va cheklangan joy ajratish uchun raqobat tufayli turar joylar, o‘quv joylari va kundalik hayotdagi ish joylari uzoqroq bo‘lib, dam olish, xarid qilish va ijtimoiy tadbirlarning boshqa turlari katta ahamiyatga ega. Dunyoning aksariyat yirik shaharlaridagi transport talabini faqat yuqori sifatli jamoat transporti tizimi bilan ta’minlash mumkin. Avtobus, temir yo‘l, trolleybus, tramvay tizimlariga qo‘yiladigan talablar asosiy omil sifatida ishonchlilik va samaradorlik bilan ajralib turadi. Ehtiyojlarni yaxshiroq qondirish uchun xizmatning ishlash vaqti va tarmoq hajmi kengaytiriladi.

Aholining yuqori sifatli va qulay yo‘lovchi tashish xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘liq qondirish, sohada bozor tamoyillarini joriy etish, xususan moliyalashtirish tizimi va tarif siyosatini takomillashtirish orqali xususiy sektor uchun jozibali biznes muhitini yaratish maqsadida, shuningdek, 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga muvofiq:

Muntazam shahar avtobus yo‘nalishlarida cheklangan tariflar bo‘yicha yo‘lovchilar tashishni brutto-shartnoma asosida tashkil etish va moliyalashtirish tizimi doirasida shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

- avtobusda yo‘lovchi tashish xizmatlarini ko‘rsatuvchi tashuvchilar (keyingi o‘rinlarda — tashuvchilar) bilan hisob-kitoblar “bosib o‘tilgan yo‘l” va “sifat” mezonlari asosida vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi;

- yo‘lkira haqqi tushumlari vakolatli davlat organi tasarrufiga o‘tkazilgan holda tashuvchilar uchun yo‘lkira haqqini kunlik yig‘ish reja-topshirig‘ini belgilash amaliyoti bekor qilinadi;

- har bir avtobus yo‘nalishi bo‘yicha tashuvchilar elektron tender natijalari bo‘yicha aniqlanadi;

- tender savdolariga chiqariladigan yo‘nalish qiymatining boshlang‘ich narxi har bir avtobus yo‘nalishi bo‘yicha yo‘lovchi tashish bilan bog‘liq xarajatlar hamda rentabellikning 10 foiz miqdori inobatga olingan holda, har bir kilometr bosib o‘tiladigan masofa uchun shakllantiriladi [1];

Shu bilan birga, u talablarni to‘liq qondirishga qaratilgan aholiga sifatli va qulay yo‘lovchi tashish xizmatlari ko‘rsatish, to sohaga bozor tamoyillarini joriy etish, xususan, jozibadorlikni yaratish moliyalashtirish tizimini takomillashtirish orqali xususiy sektor uchun biznes muhitini yaratish belgilab olingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqolada avtotransport tarmoqlarini loyihalash transport infratuzilmasining barcha elementlarini — yo‘llar, yo‘lovchi va yuk tashish tizimlari, logistika markazlari va boshqalarni — yagona tizim sifatida ko‘rib chiqishni nazarda tutadi. Transport tarmoqlarini loyihalashda ekologik va ijtimoiy omillarni hisobga olish zarurligi inobatga olinib shaharlarda transport tarmoqlarini rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlangan. Transport tarmoqlarini loyihalashda zamonaviy texnologiyalar, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini qo‘llashning afzalliklarini ko‘rsatganlar.

Shu bilan birgalikda transport tarmoqlarini loyihalashda iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun transport oqimlarini optimallashtirish, yo‘llarning o‘tkazuvchanligini oshirish va transport vositalarining harakatini muvofiqlashtirish zarurligi ta'kidlangan [2].

Hozirgi zamon loyihalash amaliyotida, hududiy rejalashtirish jarayonida, shahar transport tizimlarini uzoq muddatli rivojlantirish dasturlari odatda "ssenariy" yondashuvi asosida ishlab chiqiladi. Bu yondashuvda, loyiha muhandisi yo‘l va shahar jamoat transporti tarmog‘ining turli geometriya variantlarini ishlab chiqadi, matematik usullardan foydalanmasdan. Tanlov asosiy ravishda ekspert tajribasiga bog‘liq bo‘lib, modellar variantlarni solishtirish uchun ishlatiladi. Taklif etilgan usulda, transport tizimini rivojlantirish uchun variantlar ishlab chiqish, hududiy rejalashtirish hujjatlarida keltirilgan ma'lumotlar va transport tizimining hozirgi holati va uning sifatini baholash uchun olingan statistik ko‘rsatkichlarga asoslanadi. Bu usulda, tarmoq cheklovlarini hisobga olmagan (dastlabki) modellash usullari va geografik axborot tahlili yordamida, muhandislar transport talabi bo‘yicha qo‘shimcha ma'lumotlarga ega bo‘lishlari mumkin, bu esa shahar transportining afzalliklarini tez va asosli aniqlashga imkon beradi

Taklif etilgan yondashuvda, transport tizimini diagnostika qilish uchun ikkita qo‘shimcha modul joriy etiladi: tizimning holatini baholash va uning umumiy ishlash ko‘rsatkichlarini sintez qilish. Bu modullar yordamida, transport muammoli hududlar, ijtimoiy muhim xizmatlar uchun

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

yetarli bo‘lmagan yo‘nalishlar va transport xizmatlarining kelajakdagi talablariga mos keladigan yo‘nalishlar aniqlanadi. [3].

NATIJALAR

Respublikamizning aholisi zich joylashgan hamda umumiy aholining 10 foizdan ortig‘i istiqomat qiluvchi Andijon shahri bir muncha murakkab transport infratuzilmasiga ega. Hududda transport oqimi yo‘nalishlarini loyihalashda bir muncha murakkab jarayonlar bilan to‘qnash kelishimiz mumkin. Masalan hudud markazidan temir yo‘l yo‘nalishi o‘tgan bo‘lib jamoat transporti harakatiga, jamoat transporti intervaliga hamda barcha yo‘nalishlardagi transportlarning kunlik qatnovlar soniga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir o‘tkazmasdan qo‘ymaydi. Shunga asosan hududdagi transport tarmoqlarini asosli shakllantirish bir muncha qiyinchiliklar orqali amalga oshiriladi [4].

Shahar markazida umumiy 9 ta yo‘nalishlar tarmog‘i mavjud ularda umumiy hisobda 120 dan ortiq jamoat transportlari harakatlarni amalga oshiradi 1-rasm. Ular: 1-“Gulshan-Shahar markaziy shifoxonasi”, 8-“Taxtako‘prik-Jahon bozor”, 11-“Eski shahar-Bo‘ston”, 21-“Mirzayev-Jahon bozor”, 22-“Pistamozor-Shahar markaziy shifoxonasi”, 35-“Chilonmozor-Eski shahar” 75-“Pistamozor-36 post” hamda 394-“Munduz-Qishloq xo‘jaligi instituti” yo‘nalishlaridir [5].



1-rasm. Andijon shahri jamoat transporti yo‘nalishlari tarmog‘i

Andijon shahri birgina jamoat transportlar tarmog‘i bilan chegaralanib qolmaydi hududda yo‘nalishli hamda yo‘nalishsiz (agregatorlar) taksilar mavjud. Shahar hududida 56 ta yo‘nalishli taksi yo‘nalishlari mavjud. Ularda esa 4150 dan ziyod Damas rusumdagi transport vositalari mavjud. Hudud kichkina hamda aholi sonini o‘sib borishi yillar davomida ko‘cha yo‘l tarmoqlarida kundan

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

kunga tirbandliklar jamoat transportida kechikishlar hamda YTH sonini ortishi bilan namoyon bo‘lmoqda.



2-rasm. Andijon shahridagi yo‘nalishli taksi yo‘nalishlari tarmog‘i

Andijon shahridagi yo‘nalishlar tarmoqlari hududni to‘liq qamrab olgan 2-rasm. Shunga asosan mavjud yo‘nalishli taksi yo‘nalishlarini bosqichma-bosqich jamoat transportlari tarmoqlariga o‘tkazish yoki yo‘nalishli taksi yo‘nalishlarini optimallashtirish zarur. Albatta barcha yo‘nalishlarni jamoat transporti tarmog‘i bilan ta’minlashning imkoni yo‘q chunki infratuzilma, ko‘cha tarmog‘ida yo‘l kengliklari hamda boshqa omillardir.

MUHOKAMA


Shahar hududida 1-toifali avtomobil yo‘llari 41,164 km.ni, 2-toifali avtomobil yo‘llari 21,918 km.ni hamda 3-toifali 12 km avtomobil yo‘llari tashkil etadi. Jamoat transporti yo‘nalishlar tarmog‘i 141,5 km.ni tashkil etadi. Yo‘nalishli taksi yo‘nalishlar tarmog‘i 386,5 km.ni tashkil etmoqda.

Mazkur yo‘nalishlar tarmoqlari optimizatsiya qilinganda jamoat transport yo‘nalishlarini 18 taga transport vositalari sonini esa 323 taga yetkazish orqali shahar hududida jamoat transporti ustuvorligiga erishish mumkin. Quyida Andijon shahrida taklif etilayotgan yo‘nalishlar jamoat transporti yo‘nalishlar tarmoqlari keltirilgan 3-rasm.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6



3-rasm. Andijon shahrida taklif etilayotgan jamoat transporti yo‘nalishlar tarmog‘i

Shahar hududida taklif etilayotgan jamoat transporti yo‘nalishlar tarmog‘i infratuzilma hamda ko‘cha yo‘l tarmoqlaridan kelib chiqib shakllantirilgan.

XULOSA

Jamoat transport tarmoqlarini asosli shakllantirish metodida birinchi navbatda shahar hududidagi yo‘nalishli taksi hamda jamoat transporti yo‘nalishlari tarmoqlari o‘rganildi. Yangi shakllantirilgan yo‘nalishlar tarmoqlarida jamoat transportlari soni 203 taga ko‘paytirish yo‘nalishli taksi transport vositalari yo‘nalishlari 19 taga yetkaziladi. Mazkur jarayonda 4150 ga yaqin yo‘nalishli taksi transport vositalari 150 taga tushiriladi. Bu orqali shahar hududi to‘liq jamoat transporti harakat ustuvorligiga yetkaziladi. Shu bilan birgalikda EURO 3 ekologik standartiga to‘g‘ri keluvchi Damas avtotransport vositalari sonini keskin kamayishi shahar ekologik muhitini yaxshilaydi.

ADABIYOLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi, “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, https://lex.uz/uz/docs/-5841063;.

2. И.А Оденбах, Е.Б Таурит, Е.И Панов, А.А Макаев Особенности проектирования автотранспортных сетей https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-proektirovaniya-avtotransportnyh-setey/viewer;.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-6

3. Федоров В.П. Лосин Л.А. Методы математического моделирования для проектирования городской транспортной системы на досетевом уровне. https://cyberleninka.ru/article/n/metody-matematicheskogo-modelirovaniya-dlya-proektirovaniya-gorodskoy-transportnoy-sistemy-na-dosetevom-urovne.

4. Kh.R Turaboyev Analysis of methodological methods of regulating transportation in andijan city area https://interonconf.org/index.php/ity/article/view/8426;.

5. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi Yo‘lovchi tashish yo‘nalishlarini ochiq tenderlar orqali tashuvchilarga biriktirish bo‘yicha elektron axborot tizimi https://e-tender.uztrans.uz/;.